

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 1010 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

- Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1142. – №. 1. – С. 012093.
2. Аббазов И. З. и др. ВЛИЯНИЕ МЕСТНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДАВЛЕНИЯ И СКОРОСТИ В РАСШИРЕННОМ ПНЕВМОТРАНСПОРТЕ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 3-3 (96). – С. 37-46.
 3. Турсунов З. Р. У. и др. АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ ОЧИСТИТЕЛЕЙ ХЛОПКОВЫХ СЕМЯН НА ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Universum: технические науки. – 2023. – №. 10-4 (115). – С. 11-17.
 4. Abbazov I. Z. et al. Pressure loss during expansion of local resistance pipes in a mixture of air and fibrous waste //Textile Journal of Uzbekistan. – 2021. – Т. 1. – С. 4-11.
 5. Аббазов И.З. и др.технологик жараёнлардан чиқаётган чанг заррачаларининг фракцион таркиби //science and education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 129-135.
 6. Аббазов, Илхом Запирович, Бобир Набижон Ўғли Шаропов, and Зоҳид Равшан Ўғли Турсунов. "ВЛИЯНИЕ МЕСТНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДАВЛЕНИЯ И СКОРОСТИ В РАСШИРЕННОМ ПНЕВМОТРАНСПОРТЕ." Universum: технические науки 3-3 (96) (2022): 37-46.

CHAKANA SAVDONING RIVOJLANISH DARAJASINI HUDUDLAR KESIMIDA BAHOLASH

G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

gaybullayevsarvar674@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Jizzax viloyati misolida chakana savdo tarmog'ining rivojlanishi tahlil qilindi. SA va ASA ko'rsatkichlari min–max normallashtirish yordamida baholandi. Natijalar viloyatda savdo barqarorligini ko'rsatib, infratuzilma va iste'mol bozorini rivojlantirish imkoniyatlarini ta'kidladi. Tadqiqotda Jizzax viloyati statistika boshqarmasi va Statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Chakana savdo, SA, ASA, normallashtirish, iste'mol bozori, hududiy rivojlanish, Jizzax viloyati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo tarmog'i aholining iste'mol talabini qondirish, ichki bozor barqarorligini ta'minlash va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda uning rivojlanish darajasini

statistik usullar asosida, kompleks va ko‘p omilli yondashuv orqali baholash maqsad qilindi.

Birinchi bosqichda tanlangan indikatorlar me‘yorlashtirilib, ularning umumlashtirilgan o‘rtacha qiymatlari hisoblandi. Jizzax viloyati misolida chakana savdo rivojlanish darajasi beshta asosiy komponent asosida aniqlanib, tizimli baholash imkoniyati yaratildi.

Mazkur komponentlar quyidagilardan iborat: chakana savdo aylanmasi (SA), aholi jon boshiga chakana savdo (ASA), savdo korxonalari zichligi (KZ), savdo sohasiga investitsiyalar (SI) va savdo infratuzilmasi maydon sig‘imi (SM). Ushbu ko‘rsatkichlar savdo tarmog‘ining asosiy iqtisodiy jihatlarini aks ettiradi.

Keyingi bosqichda ularning statistik qiymatlari aniqlanib, tegishli formulalar asosida hisoblandi va iqtisodiy mazmuni tahlil qilindi. Har bir ko‘rsatkichni alohida o‘rganish chakana savdo rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni chuqurroq baholash hamda umumiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Chakana savdo aylanmasi hajmi (SA) hududda realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini ifodalaydi va savdo tarmog‘ining iqtisodiy faolligini baholovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. U orqali iste‘mol hajmi, aholi xarid qobiliyati hamda savdo infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi aniqlanadi. SA o‘ssishi iqtisodiy faollikning ortishi, daromadlarning ko‘payishi va savdo xizmatlari kengayishini anglatadi.

O‘rtacha qiymat quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SA = \sum(P_i * Q_i)$$

bu yerda P_i – tovar narxi, Q_i – sotilgan miqdor.

Ushbu ko‘rsatkich asosida Jizzax viloyati holati yuqori natijaga ega hudud bilan taqqoslandi. Eng yuqori qiymat etalon, eng past qiymat esa minimal daraja sifatida olinib, ko‘rsatkichlarni normallashtirish va baholashda mezon vazifasini bajardi. Natijada viloyatning chakana savdo rivojlanish darajasi minimal va maksimal oraliqda aniqlab olindi.

Jizzax viloyati ko‘rsatkichi minimal va maksimal qiymatlar oralig‘ida baholanib, uning chakana savdo faoliyati rivojlanish darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

1-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda chakana savdo aylanmasi hajmi (SA) ko‘rsatkichi va uning qiymati⁸⁹

Ko‘rsatkichlar	Chakana savdo aylanmasi hajmi
Belgilanishi	SA
Tavsifi	Hududda chakana savdo orqali sotilgan tovarlarning umumiy qiymati (mlrd so‘m)
Eng past hudud uchun ko‘rsatkich qiymati	7 043 mlrd so‘m
Eng yaxshi hudud uchun ko‘rsatkich qiymati	18 900 mlrd so‘m
Jizzax viloyati uchun ko‘rsatkich qiymati	13 086,0 mlrd so‘m

⁸⁹ Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari

1-jadval ma'lumotlari asosida Jizzax viloyati uchun chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati aniqlab olindi.

Shu asosda chakana savdo aylanmasi hajmi ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati quyidagi formula orqali hisoblab chiqildi:

$$SA_n = \frac{SA_i - SA_{min}}{SA_{max} - SA_{min}}$$

bu yerda, SA_n – chakana savdo aylanmasi hajmining normallashtirilgan qiymati;

SA_i – Jizzax viloyatining chakana savdo aylanmasi hajmi;

SA_{max} – etalon hudud uchun eng yuqori chakana savdo aylanmasi qiymati;

SA_{min} – eng past chakana savdo aylanmasi qiymati.

Joriy yilda Jizzax viloyatida chakana savdo aylanmasi 13 086,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Minimal qiymat 7 043 mlrd so'm va maksimal etalon 18 900 mlrd so'm asosida min–max normallashtirish hisoblandi. Natijada viloyat uchun normallashtirilgan qiymat 0,51 ga teng ekanligi aniqlandi.

Hisob-kitoblar Jizzaxda chakana savdo nisbatan barqarorligini ko'rsatadi va savdo aylanmasini oshirish, infratuzilmani kengaytirish hamda aholi xarid qobiliyatini yaxshilash orqali ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi (ASA) hudud chakana savdo hajmining aholiga nisbati orqali aniqlanadi va iste'mol bozorining rivojlanish darajasini baholashda muhim indikator hisoblanadi. Ko'rsatkich hudud aholisi iste'mol qilayotgan tovarlar hajmi va xarid faolligini aks ettiradi hamda savdo tarmog'ining aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi va hududiy bozor rivojlanishini baholash imkonini beradi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi (ASA) o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ASA = \frac{SA}{N} \quad (3)$$

bu yerda, ASA – hudud uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi;

SA – hududdagi chakana savdo aylanmasi;

N – hudud aholisi soni;

Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi oshishi hududda real daromadlarning ortishi, iste'mol faolligining kuchayishi va savdo xizmatlari ko'lamining kengayishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich savdo tarmog'ining samaradorligi va aholining iste'mol darajasini baholashda samarali hisoblanadi. SA ko'rsatkichida qo'llangan ketma-ketlik kabi, ASA ko'rsatkichini ham jadval orqali hisoblab chiqildi.

2-jadval

Chakana savdo rivojlanish darajasini baholashda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan chakana savdo aylanmasi (ASA) ko‘rsatkichi⁹⁰

Ko‘rsatkichlar	Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi
Belgilanishi	ASA
Tavsifi	Chakana savdo aylanmasining hudud aholisi soniga nisbati (ming so‘m)
Eng past hudud uchun ko‘rsatkich qiymati	5 456,3 ming so‘m
Eng yaxshi hudud uchun ko‘rsatkich qiymati	12 800,5 ming so‘m
Jizzax viloyati uchun ko‘rsatkich qiymati	8 430,6 ming so‘m

Jizzax viloyatida aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi 8 430,6 ming so‘mni tashkil etdi. Minimal qiymat 5 456,3 ming so‘m, maksimal qiymat esa 12 800,5 ming so‘m sifatida qabul qilindi. Shu asosda normallashtirilgan qiymat 0,41 ga teng ekanligi aniqlandi.

Natija viloyatda aholining iste‘mol faolligi nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi va savdo xizmatlarini kengaytirish hamda bozorni rivojlantirish orqali ko‘rsatkichni yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar hamda ekspert baholash natijalaridan kelib chiqib, Jizzax viloyatida chakana savdo rivojlanish darajasi indeksi quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi:

$$CSRD = 0,30 \cdot 0,51 + 0,25 \cdot 0,41 + 0,15 \cdot 0,40 + 0,20 \cdot 0,65 + 0,10 \cdot 0,60$$

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib, chakana savdo rivojlanish darajasi indeksi (CSRD) 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda normallashtirilgan ko‘rsatkich sifatida shakllantirildi. Mazkur indeks qiymatlarini tizimli ravishda talqin qilish hamda hududlarda chakana savdo tarmog‘ining rivojlanish darajasini aniqroq baholash maqsadida integral ko‘rsatkichlar uchun maxsus baholash mezonlari ishlab chiqildi. Indeks qiymatlarining iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda ularni amaliy jihatdan tahlil qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida chakana savdo rivojlanish darajasini ifodalovchi baholash shkalasi taklif etildi.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyatida chakana savdo infratuzilmasini yanada takomillashtirish, yangi savdo obyektlarini barpo etish, savdo sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy etish orqali mazkur ko‘rsatkichni yuqori bosqichga ko‘tarish imkoniyatlari mavjud. Ushbu chora-tadbirlar hududda iste‘mol bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, chakana savdo tarmog‘i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

⁹⁰ Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadov, B. (2020). *O'zbekiston chakana savdo tarmoqlari va iqtisodiy samaradorlik*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
2. Karimov, S. (2019). *Hududiy bozorlar va iste'mol bozori rivoji*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Rustamov, J. & Tursunov, N. (2021). *Chakana savdo infratuzilmasi va iqtisodiy indikatorlar*. Jizzax: Jizzax Davlat Universiteti nashriyoti.
4. Davletov, M. (2018). *Iqtisodiy tahlil va normallashtirish usullari*. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2023). *Hududiy statistik hisobotlar: chakana savdo aylanmasi va aholiga to'g'ri keladigan savdo ko'rsatkichlari*. Toshkent.
6. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. (2023). *Chakana savdo tarmoqlari bo'yicha hududiy ma'lumotlar*. Jizzax.
7. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.
8. G'aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.
9. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 95-99.
10. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
11. Sarvar G., Sirojiddin S., Xushnudbek P. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 126-129.
12. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.
13. G'aybullayev S. THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – C. 7.
14. Kamolov D., Asrayev S. STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 353-361.
15. G'aybullayev Sarvar O. et al. FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – C. 16.